



**AMIR TEMURNING XORAZMGA QILGAN YURUSHLARI VA UNING  
OQIBATLARI (NIZOMIDDIN SHOMIY VA SH. ALI YAZDIYNING  
"ZAFARNOMA" ASARI ASOSIDA)**

**Axmedov Sanjar Bektemirovich**

*Ilmiy rahbar tarix fanlari bo'yicha falsaqa doktori (PhD)*

**Boboxodjayev Ubaydillo Izatullayevich**

*Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix (2-bosqich talabasi)*

**Annotatsiya:** ushbu maqola Amir Temurning Xorazmga yurishlari. Amir TemurXorazmni buysundirish uchun qilgan harakatlari va 5 marta qilgan yurishlari hamda Xorazmnинг hukmdorlari bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatishi, Xorazm hukmdoriari bilan olib borgan munosabatlari va ikki hukmdor o'rtaсидagi elchilik aloqalari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Husayn So'fi, Yusuf So'fi, fasil, hisor, Kat, Jaloliddin Keshiy, Samarqand, Shayx Ali, O'zbek.

Amir Temur mamlakatni o'z tasarrufiga kiritgandan so'ng amirlar va no'yon<sup>1</sup>lar bilan ittifoqlidka mamlakat taxtini va podsholikni Suyurg'otmishxoniga topshirdi. Amir Temur mamlakatni begonalar qo'lidan xalos qilib saltanatni esa Chig'atoy xonadoni vakiliga topshirib ularning qonun-qoidalalarini tiklagan vaqtida amir Husayn So'fi Kot<sup>3</sup> va Xivani o'z tasarrufiga olganiga 5 yil bo'lgan edi. Amir Sohibqiron amir Husayn So'figa Alfa Tovochi boshchiligidagi elchini yuborib xabar qildi: "Bu ikki mavze Chig'atoyxonga tegishlidir, shuning uchun bu (mavze) larga nimaiki taaluqli bo'lsa, barchasini podshoh devoni tasarrufiga kiritgin, toki (podshohona) marhamatu mehribonlikka sazovar bo'lib, ikki orada do'stlik yo'lli ochilsin va birlik omillarii muhayyo bo'lsin".<sup>4</sup><sup>5</sup> Husayn So'fi bunga javob qildi, "Men bu viloyatni qilich bilanolibmen, yana qilich bilan mendan olgaylar".<sup>11</sup> Bu so'zlar Amir Temurning qulog'iga yetishi bilan mavlono Jaloliddin Keshiy Amir Temurdan ijozat so'rab Xorazmga yo'l oldi. Husayn So'figa nasihatlar va hadislar bilan tushuntirib munosabatlarni tinchlik yo'llari bilan hal qilishni aytadi. Lekin Husayn So'fi nasihatlarni qabul qilishdan bosh tortdi.

**Xorazmga birinchi marta qilgan yurishi:** Bundan xabar topgan Amir Temur lashkarlarni bir joyga yig'ib qurol-asлаha, ot-ulov bilan taminlab Xorazmga tomon yurish boshladi. Tog' Adog' va Sepoya<sup>6</sup> mavzesidan o'tganda dushman

<sup>1</sup>No'yon( no'yin) - turk-mo'gul xalqlari orasida xonzoda, ulug' amir, noib,tuman (o'ng ming kishilik lashkar)boshlig'i ma'nolarida qo'llanilgan.

<sup>2</sup> Movarounnahr taxtiga AmirTemur tomonidan nomigagina tayinlangan Chingizxon avlodiga mansub xon 1370- 1378-yillarda hukmronlik qilgan.

<sup>3</sup> Kot(Kat)- Amudaryoning o'ng sohilidagi Shahar, Xorazmning qadimgi poytaxti, hozirgi nomi Beruniy shahri, Qoraqalpog'istonidagi Beruniy tumanining markazi.

<sup>4</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - T.: "Fan" nashriyoti. 2019-yil. 89-b.

<sup>5</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - T.: "Fan" nashriyoti. 2019-yil. 89-b.

<sup>6</sup> Chorjo'y bilan Darxonota oralig'ida joylashgan mavze.



qo'shinining qoravul qismi bilan to'qnash keladi. Qoravul qismi ustidan g'alaba qozonib Kot shahri tomon yo'lida davom etadi. Kot shahrida Husayn So'fi tomonidan Bayramxo'ja yasovul shixna<sup>7</sup> qilib tayinlangan edi. Muayyad qozi esa Bayramxo'ja yasavulga hukmronlikda sherik edi. Amir Temurning lashkarlari hisor yaqiniga yetib kelganda nochor darvozalarni berkitdi va arroda, tiri charxlar<sup>8</sup>ini tayyorlab turdi.

Amir Temur mudofaa devorlariga yaqinlashib askarlarga o'tin, xashak yig'ib kelib xandaqni to'ldirishni buyuradi va Ko'cha Malikka birinchilardan bo'lib xandaqdan o'tishni buyuradi. Ko'cha Malik esa bundan bosh tortadi. Keyin Xumori yasovulga tushushni buyuradi va undan keyin Mubashshir, Toyxo'ja ham unga ergashadi. Shu tarzda qo'shin xandaqdan suv kechib o'ta boshlaydi. Lashkarlar orasidan Shayx Ali fasil<sup>9</sup> tepasiga chiqdi va qo'shin qal'a devorlarini har tomonidan buzib kira boshladи. Dushman qo'shinini yengib mol-mulklarini talon-taroj qildi va Samarqandga yubordi. Amir Temur qo'shining qolgan qismi bilan Xorazmga tomon yo'l oldi. Ko'cha Malikning aybi uchun esa uni cho'p yasoq etdi va eshakning dumiga bog'lab Samarqand tomon haydadilar. Amir Temur amir Giyosuddin tarxon, Yusufshoh Xoja va amir Tumonni lashkarga mang'loy etib tayinlab Xorazmga yubordi. Lashkar Jo'yi Gurlanga yetganda Menglixo'ja va Keshik bilan jang qilib yo'lida uchraganni barchasi talon-taroj qilindi.

Husayn So'fi qal'aga kirib dushman bilan sulh tuzish yo'lini tanlaydi. Shu vaqtida Husayn So'figa Kayxusrav<sup>10</sup> elchi yuborib dushmanga qarshi kurashishga undaydi. Yuborgan xabarida: "Zinhor unga ishonma do'stlik eshagini ocha ko'rмагин. Lashkar to'plab, darvozani ochda, tashqari chiq, men esa bu tarafdan boraman va birgalashib dushmanni daf qilamiz"<sup>11</sup>- dedi. Husayn So'fi Kayxusravni so'zlariga ishonib Jo'yi Qovun suvi<sup>12</sup> labida qo'shini saf tortdi. Bundan xabar topgan Amir Temur qo'shini dushmanga yuzlandi va ularning maymana va maysara qismi orasta qilingan, Qovun suvi esa fosila edi. Ikki tomon qo'shini bir-biriga qarama-qarshi turganlarida Abochi, Sori Bug'o va Jirg'out suvgaga ot solib urushni boshladи. Barcha amirlar va lashkarlar suvdan o'ta boshladи bular orasida Elchi Bahodir suvgaga sho'ng'ib vafot etadi. Bir qancha vaqt o'tib Amir Temurning lashkarlari qayta jam bo'lganda son-sonoqsiz o'ljalari bilan qaytadi. Bir necha kundan keyin Amir Temurni oldiga elchi kelib Husayn So'fi o'lganligi va uning o'rniga Yusuf So'fi o'tirganligi haqida xabar berdi. Yusuf So'fi va Amir Temur o'tasida elchilar orqali aloqa o'rnatilib barcha muoammolar qarindoshlik aloqalarini o'rnatish bilan yakunlandi. Amir Nangqudoyni o'g'li Oq So'fi<sup>13</sup> podshoh

<sup>7</sup> Shixna - shaharda tartib saqlash ishlар bilan shug'ullanuvchi harbiy mansabдор.

<sup>8</sup> Tiri charx - aylanib o'zi o'q otadigan harbiy qurilma.

<sup>9</sup> Fasil - qal'a va boshqa mudofaa inshooatlar devorlari oldidan qurilgan yana bir tashqari devor, oraliq joy.

<sup>10</sup> Xuttalon hokimi 1372-yilda o'ldirilgan.

<sup>11</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - T.: "Fan" nashriyoti. 2019-yil. 91-b.

<sup>12</sup> Sh. Ali Yazdiy yozishicha xorazmdan ikki farsax masofada joylashgan.



O'zbek<sup>14</sup>ning qizini nikohiga olgan edi, Xonzoda O'zbekning nabirasi edi. Xonzodani Amir Temur o'g'li Jahongirga so'rattirdi. Bunga Yusuf So'fi rozi bo'ldi. Amir Temur qo'shini bilan Samarcandga qaytadi va qishni o'z taxtghida qaror topib o'tkazdi va lashkarlariga uyga ketishga ruxsat beradi.

#### **Xorazmga ikkinchi yurishi:**

Yusuf So'fi gapidan qaytib, Kot shahriga qo'shin tortib aholisini tarqatib yubordi. Bundan xabar topgan Amir Temur hijriy 775(1373-1374) yil bahori aynan 1374-yil bahorida san-sanoqsiz lashkar bilan Xorazmga yo'l oldi. Yusuf So'fi Amir Sohibqironning kelayotganini eshitib qilgan ishlaridan pushaymonda bo'lib Xonzodani sep-molini tayyorlab tezlik bilan yuborishni maqbul ko'rdi. Hijriy 776-yil (1374-1375-yil) Amir Sohibqiron amir Dovud, Yodgor Barlos va Uzun Uljaytularni podshohona hadyalar va nodir buyumlar bilan Xorazmga yubordi. Husayn So'fi mehmonlarni ulug'lash, hurmatlash vazifalarini bajo keltirib, Xonzodani Samarcand tomon yuboradi. Amir Temur Xonzodaning kelayotganini eshitib hurmatlash va ulug'lash vazifalarini bajo keltirib Qurtg'o xotunni istiqbolga chaqirdi. No'yonlar, amirlar, qozilar, ulamolarni uning istiqboli uchun Kotga yuboradi va Xonzodani izzat-ikrom bilan Samarcandga olib keldi.

#### **Xorazmga uchunchi yurishi:**

Hijriy 778-yilda 1377-yilning mart oyida Amir Temur Xorazmga yurishni boshladi va elchi yuborib (ma'lum qildi): "Madomiki itoat etish va el bo'lish da'vosini qilar ekansizlar, ul diyor amirlari bilan ittifoqlikda lashkarlar jam qilib muborak o'rduga hozir bo'linglar". Yo'l-yo'lakay amir Sori Bug'o, Odilshoh, Xitoy bahodir va Elchi Buyoni o'ttiz ming kishi bilan dug'lot aymog'idan bo'lgan mug'ul hukumdori Qamariddin (1368-1389)ga qarshi jo'natadi va o'zi Xorazm tomon yurib Sepoya hududiga yetadi. Aynan shu vaqtida Amir Sohibqironning amirlari xiyonat qilishni boshladi. Dastlab T urkon Omuya suvi tarafdan qochib ketadi. T urkonni qochganini sezib qolgan Po'lod ortidan quvlashga tushadi va yetib olib boshini tanasidan judo qildi. Ko'p o'tmasdan Odilshoh, Xitoy bahodir, Elchi Bug'o va Sori Bug'o bilan birlashib hammalari qipchoq va jaloyir elidan lashkar to'plab Amir Sohibqironga qarshi chiqadilar va Samarcandni qurshab olishni boshlashadi. O'troq aholi Samarcandni qamal qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu vaqtida qo'rg'on hokimi Oq Bug'o bahodir edi, u Amir Temurga xabar yubordi. Bu vaqtida Amir Temur Kotdan o'tib Xosga yetgan edi. Samarcanddan yuborilgan xabarni eshitib Jahongirni bosh qilib Samarcandga qo'shin yuboradi va o'zi ham Jahongirning izidan yo'lga chiqadi

Jahongir Buxoroga yetganda, Amir Temur esa Raboti malikka<sup>15</sup> yetgan edi. Amir Temurning qo'shini ko'pligini bilgandan so'ng xiyonat qilgan amirlar O'zbek viloyatiga ketadilar va O'ruxsonni huzurida panoh topadi.

#### **Xorazmga to'rtinchi marta yurishi:**

Yusuf so'fining o'yamasdan qilgan ishlari va kaltabinlik tufayli Buxoroga

<sup>14</sup> O'zbekxon - Oltin o'rda xoni 1312-1340

<sup>15</sup> Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Ravot qishlog'i.



lashkar yuboradi. Lashkarlar ba'zi viloyatlarni talon-taroj qildilar. Buning natijasida Amir Temur Jaloliddin Bahodirni elchi qilib yuborib, Yusuf So'figa dedi: "O'rtamizdag'i ittifoqlik va qarindoshlikdan keying bu muxolifatga sabab nima?"<sup>16</sup> Yusuf So'fi elchiga javob qaytarmay, uni ushlab bandi qilishdi. Amir Temur yana bir maktub yo'lladi, unda: "Elchiga o'lim va bandilik yo'qdir, elchining gardanidagi vazifa buyruqni aniq qilib yetkazishdan boshqa narsa emas. Mening elchimni qaytarib yubor"<sup>17</sup> deb yozib yana bir choparni yuboradi. Yusuf So'fi choparni ham tutib bandi qildi va To'y Bug'oni lashkar bilan Buxoroga yubordi. Ular turkmanlarni tuyalarini o'g'irlab qaytdilar bundan xabar topgan Amir Temur hijriy 781 (1379-1380) yilda lashkar tuzib Xorazmga yo'l oldi. Turklar Ko'hna daryodan o'tib shaharni ikki tomondan o'rab oldi. Yusuf So'fi Amir Temurga noma yo'lladi, mazmuni: "Qachongacha ikki tomondan musulmonlar azob chekadilar va o'rtada halok bo'lib ketadilar hamda ikki shaxsnng nafsi tufayli bir jahon xarob bo'ladi? Vazifa shulkim, men va sen ikkimiz maydonga chiqaylik va bir birimiz bilan olishib ko'raylik, qaysi birimizning baxtimiz chopsa, o'sha g'olib kelgay va musulmonlar bu mashaqqatdan xalos bo'lgaylar"<sup>18</sup>. Amir Temur bu gapdan xursandligini ko'rsatib shunday dedi: "U insof yuzasidan so'ylaydir, bundan ortiq so'zni tasavvur qilib bo'lmas. Men O'zim hamisha orzuda edim, biroq taklif qilib aytsam qabul qilmasmikin deb andisha qillardim. Bu juda to'g'ri so'z, undan bosh tortmaymiz"<sup>19</sup>. Shu so'zlarni aytib Amir Temur Yusuf So'fini oldiga bordi va unga dedi: "Men sening iltimosing bilan keldim. Sen ham tashqari chiq ko'raylik-chi, ulug' Tangri hazrati kimga Nusrat va zafar berarkin". Bu gaplarni eshitib Yusuf So'fi qo'rqi va qal'adan tashqari chiqmadi.

Shu vaqt Termizdan Amir Temur huzuriga yangi pishgan qovun keltirdilar. Amir Temur Yusuf So'fi garchi o'rinsiz men bilan muxolifat qilgan bo'lsa ham oramizda qarindoshligimiz bo'lgani uchun birinchi qovunni usiz yeyiz joiz bo'lmasa kerak deb oltin toboqchaga solib qovunning bir qismini unga yubordi.

Yusuf So'fi esa qovunni suvg'a tashlab, oltin toboqchasi darvozaboning biriga baxshida qildi va darvozani ochib urush boshladi. Kechgacha urush bo'ldi va manjaniqni tayyorlashga ishorat bo'ldi. Manjaniq toshi bilan qo'rg'on burjida solingen Yusuf So'fi ko'shkini yiqitdilar va 3 oy muhosara muddati cho'zildi. Shundan keyin Yusuf So'fi vafot etdi. Amir Temur Samarqandga qaytib Kesh shahrini qurilishiga farmon berdi va shu o'rtada Oq Saroyni ham qurdirdi. Oq Saroyni peshtoq va ravoqlarini Ayyuq(yulduzlarga) yetkazdilar, biron kimsa jahonda unday bino qurdirmagan va ko'rmagan ham edi.

#### **Xorazmga beshinchi marta yurishi:**

Hijriy 790 (1388-yil mart-aprel) yilda Amir Temur Xorazmga yurish qildi. Egri yer mavzeyiga tushdi va Kuncha o'g'lon va Temur Qullug' o'g'lonni Shayx Ali bahodir va Shayx Temur bahodirga qo'shib qo'shinni mang'loy qismiga boshchi

<sup>16</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - T.: "Fan" nashriyoti. 2019-yil. 107-b.

<sup>17</sup> Nizomiddin Shomiy.Zafarnoma.-T.: "Fan"nashriyoti.2019-yil.107-b.

<sup>18</sup> Nizomiddin Shomiy.Zafarnoma.-T.: "Fan"nashriyoti.2019-yil.107-b.

<sup>19</sup> Nizomiddin Shomiy.Zafarnoma.-T.: "Fan"nashriyoti.2019-yil.108-b.



qilib yubordi. Iyd Xo'jani qorovullikka yubordi u orqali dushman haqida ma'lumotlarga ega bo'lib turdi. Amir Temur Ilig'mish o'g'lon va Sulaymon So'fiy Xorazmdan qochgani haqida xabarni eshitib ortidan Mirzo Mironshoh va u bilan birgalikda Muhammad Sultonshoh, Shamsiddi Abbas, Uch Qora bahodir, Yug'u Temur va Sevinchak bahodirni yubordi. Amir Temur Xorazmda bir necha kun yurib Xorazm xalqini Samarcandga ko'chirishni buyuradilar va shaharni buzib o'rniqa arpa ekishni buyuradi<sup>20</sup>. Uch yildan keyin Xanqi Qovchinning o'g'lini Xorazmga yuborib qal'a bunyod ettiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - T.: "Fan" nashriyoti. 2019-yil.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - T.: "Sharq" nashri

---

<sup>20</sup> Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - T.: "Sharq" nashriyoti. 1997-yil. 119-b.